

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**

Asatullayeva Maxsuma Oybek qizi
Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani
22- sonli DMTT tarbiyachisi

Ta'limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko'lamlı axborotlar oqimi ta'lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatini ro'yobga chiqarish, kadrlar tayyorlashda yagona davlat talablari asosida o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'quv-adabiyotlari bilan ta'minlash, pedagoglarga uzliksiz metodik xizmat ko'rsatish vazifasini amalga oshirish muhim vazifalardan biridir. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot bolalar va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, bola dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik jarayonlarni takomillashtirish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

Pedagogik texnologiyani har tomonlama puxta o'ylangan pedagogik loyihalashtirish, ta'lim jarayonini tashkil qilish bola va pedagog uchun erkin, qulay shart-sharoit yaratish orqali xamjihatlikda ishlab chiqilgan model desak bo'ladi.

Ta'lim jarayonida bolaga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Bola bu jarayonda qanday vazifani bajarishi kerak - maqsad vazifasinimi yoki unga erishish uchun vosita vazifasinimi? Bolaga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi bolani butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi. Pedagogik texnologiyaning muhim tarafi ta'lim jarayonidagi bolaning o'rni va unga kattalarning munosabatidir.

Bolalar psixologiyasi bo'yicha taniqli mutaxassis E.A.Panko shunday yozadi: "O'qituvchi bolalar bog'chasidagi bola uchun muhim shaxs, u o'zining mikro muhitiga kiradi. Maktabgacha tarbiyachi hamma narsada o'qituvchiga taqlid qilishga intiladi: tashqi ko'rinishi, boshqalar bilan gaplashish uslubi, odamlar bilan munosabatlari, umuman olganda bola o'z oldida munosib namuna ko'rishi muhim.

"Pedagogik texnologiya" atamasi keyingi yillarda pedagogik adabiyotlarda (V.P.Bespalko, M.V.Klarin, N.E.Shchurkova, G.K.Selevko va boshqalar) keng qo'llanilmoqda. Biroq, pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti hali ham ishlab chiqilmoqda va

pedagogikaning yangi tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Shuning uchun adabiyotlarda pedagogik texnologiyalarning mohiyati haqida ko'plab qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Pedagogik texnologiyani loyihalashtirishda bolaning individual hamda yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, MTTlarda nutq o'stirish mashg'ulotini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, olib borilayotgan mashg'ulotlarni, berilayotgan bilimlarni tushunarli va sodda yetkazish yo'llarini loyihalashtirilgan pedago gik texnologiyalar asosida tashkil etish muhimdir. Buning uchun avvalo, tarbiyachi berilayotgan mazmunga mos metod, shakl, texnik jihozlar, o'yinlar hamda kutiladigan natijani oldindan rejalashtirmog'i lozim. Ma'lumki, bugungi kunda bolalar "texnika asri"da ulg'aymoqdalar. Bolalarning talabi bo'yicha mashg'ulotlarni loyihalashtirmoq juda muhimdir. Ayniqsa, ular uchun qiziqarli tarzda tayyorlangan multimedia dasturlarining mavzuga moslarini tizimli modulini yaratish, soddadan murakkabga, izchil, ketma-ket tashkil etish, har bir mashg'ulotga doir multimedialarni qo'llash tarbiyachidan ijodkorlik, izlanish hamda mas'uliyat bilan har bir mashg'ulotga yondashishni talab etadi. Albatta bunda, pedagogning diqqat markazida o'zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilayotgan, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila oladigan va hayotning har xil holatlarida mustaqil, ongli va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bo'lgan butun bir bola shaxsi turmog'i lozim. Bolaga ijtimoiy normalar asosida bilim beruvchi an' anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq bolaga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyasida yuqorida qayd qilingan yo'nalish(sifat)larni bola tomonidan zabit etilishi tarbiyaning asosiy maqsadi qilib qo'yiladi.

"O'yin texnologiyalari" tushunchasi turli xil pedagogik o'yinlar shaklida pedagogik jarayonni tashkil etishning yetarlicha keng usullari guruhini o'z ichiga oladi. Umuman o'yinlardan farqli o'laroq, pedagogik o'yin muhim xususiyatga ega - aniq belgilangan o'quv maqsadi va unga mos keladigan pedagogik natija, uni asoslash, aniq aniqlash va ta'lif va kognitiv yo'nalish bilan tavsiflash mumkin. O'yin shakli bolalarni kognitiv faoliyikka undash, rag'batlantirish vositasi sifatida ishlaydigan o'yin texnikasi va vaziyatlar yordamida yaratiladi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish maktabgacha yoshdagи bolalarni tarbiyalashda yangi imkoniyatlar ochadi. Har qanday texnologiya singari, maktabgacha ta'lifning pedagogik texnologiyasi ham o'quvchiga ta'sir qilishning sifat jihatidan o'zgarishi jarayonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shokarimova, K. A. (2020). Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning talimtarbiya berishdagi ahamiyati. Science and Education, ^ (Special Issue 2).
2. Shokarimova, K. A. (2021). The way of improving reading and writing skills during the lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
3. Ражапова, И. Т. (2019). Методика обучения видам русского глагола. Илм сарчашмалари.
4. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. P. YUsupova. —T., «O'qituvchi». 1993.